

**OLAMNING LISONIY QIYOFASI VA UNING XALQ ERTAKLARIDA
VOQELANISHI MUAMMOSI**

Ismatov Asliddin Fazliddin o'g'li

Renessans ta'lim universiteti

mustaqil izlanuvchisi, filologiya

fanlari nomzodi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu tezis tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari, xususan, kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan milliy olam qiyofasini tahlil qilishga qaratilib, unda olamning lisoniy va konseptual qiyofasi hodisasi, ularning xalq ertaklaridagi aks etishi va tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilishi masalalari ko'rib chiqiladi hamda olam lisoniy va konseptual qiyofasi tushunchalarining farqlari, ularning til va tafakkur, madaniyat va etnik o'ziga xoslik bilan aloqasi o'zbek, ingliz va boshqa xalqlar ertaklari misolida tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: olamning lisoniy qiyofasi, olamning konseptual qiyofasi, konseptosfera, milliy madaniyat, etnik o'ziga xoslik, kognitiv tilshunoslik, xalq ertaklari, lingvomadaniy qadriyatlar, til va tafakkur, dunyoqarash.

Olamning lisoniy qiyofasi hodisasini tadqiq etgan olim V.A. Maslova: “Olamning lingvistik qiyofasi ma'lum bir kishilar milliy hamjamiyatining o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy tajribasi, o'sha xalqning milliy madaniyati, turmush tarzi bilan chambarchas bog'liqdir”, degan xulosaga keladi.

Olamning konseptual qiyofasi “mahalliy bilimlar, etnik-madaniy, ijtimoiy muhit, avlodlardan avlodga o'tadigan til va madaniy hamjamiyatning to'plangan qadriyatlari tajribasi” bilan belgilanadi. Bizningcha, “olam qiyofasi” va “olamning konseptual qiyofasi” tushunchalarini bir-biri o'rnida qo'llash noto'g'ri. Ammo ba'zi olimlarning bu tushunchalarni ajratishga urinishlari ham noaniq. Masalan, A.E. Shcherbinina olam obrazini “insonning olam va unga qarashlari” deb ta'riflab, olamning konseptual obrazini “inson qarashlari asosida shakllangan tushunchalar


bilan ifodalangan haqiqat”, deb ko‘rsatadi.

Ushbu masala bo‘yicha klassik tadqiqotlarda olam tasviri va uning konseptual qiyofasi ta’riflari bir-biriga qisman mos keladi. Misol tariqasida quyidagi ta’riflarni keltirish mumkin: “Olam tasviri atrof-muhit, shaxsning obyektiv voqeligi haqidagi qarashlar majmui” va “...olamning inson dunyoqarashiga asoslangan global qiyofasidir”. Bizning tushunishimizcha, olam qiyofasi doimo o‘zgarib turadigan obyektiv voqelik, olamning konseptual qiyofasi (konseptosfera) esa tushunchalar tizimidan iborat bo‘lib, og‘zaki shaklga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan haqiqiy borliqning talqin qilingan shaklidir.

Olam konseptual tasvirining og‘zakilashtirilgan qismi olamning lingvistik tasviri deb ataladi. Albatta, faqat olamning konseptual qiyofasi og‘zaki shakllardan tashqari sof tafakkur sohasiga tegishli ekanligini tan oladigan fikrlarga to‘liq qo‘shilish juda qiyin. Chunki olimlarning mutlaq ko‘pchiligi (A. Vejbitskaya, N. D. Arutyunova, A. P. Babushkin, V. P. Neroznak, G. G. Slyshkin va boshqalar) konsepsiyani “olam konseptual qiyofasining asosiy birligi”, deb hisoblaydilar va tushunchaning og‘zaki tarzda uzatilishini e’tirof etadilar. Bizning nuqtai nazarimizdan, albatta, ba’zi tushunchalar fikrlash tizimi bilan bog‘liq, ammo ularni faqat verbal formada tasavvur qilish maqsadga muvofiq emas. Olim R.R. Zamaletdinov ham ushbu fikrimizni qo‘llab-quvvatlab, shunday deydi: “Olamning lingvistik tasviri, tabbiyki, konseptual birlik hisoblanadi. Chunki u olamning konseptual qiyofasiga bog‘liq. Ya’ni fikrlar tilda to‘liq qayd etilmaydi, til birliklari bu fikrning faqat muhim tomonlarini belgilaydi”.

Demak, olamning konseptual obrazibilan olamning lisoniy tasviri bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, olamning lisoniy tasviri konseptual obrazning bir qismidir. U inson hamda uning mavjudligini, shuningdek, dunyo bilan munosabatini belgilaydi. Agar biz bu hodisani vizual tarzda bermoqchi bo‘lsak, jarayon quyidagicha ko‘rinish hosil qiladi:

**Olamning lingvistik
qiyofasi**



Albatta, til vositalarining izohlanishi va konseptosferaning asosiy elementlarining nomlanishi tufayli olamning konseptual obrazi olamning lingvistik obrazida to‘liq ifodalangan, degan xulosaga kelish qiyin. Biroq, antropotsentrik paradigma doirasida milliy olam obrazlarida tushunchalarni ifodalash xususiyatlari, til ma’lumotlari bilan madaniy ma’lumotlar o‘rtasidagi munosabatni o‘rnatish masalalari, shubhasiz, eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

N.Chomskiyning fikricha: “Agar biz tilning qanday qo‘llanilishini tushunmoqchi bo‘lsak, unda erta bolalik davrida shakllana boshlaydigan ma’lum intellektual qobiliyatlar, bilim va munosabatlar tizimi alohida ko‘rib chiqilishi kerak va ularning biz ko‘rgan xatti-harakatlarga ta’sir qiluvchi ko‘plab boshqa omillar bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganish zarur”.

Har qanday xalqning mavjudligi, madaniyati, bilimi va tafakkuri h.k, ma’lumki, til orqali ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan, inson tabiatining bir bo‘lagi bo‘lgan ertaklardagi milliy madaniyat va bilimlarning kognitiv tahlili uning chuqur etnokognitiv mohiyatini ochish imkonini beradi. Tilni kognitiv nuqtai nazardan o‘rganish hozirgi o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, inson zoti chinakam borliq olami qiyofasini qanday tasvirlaydi, aqliy bilishlar asosida qanday namoyon bo‘ladi, degan savollarni hal etish va milliy olam haqidagi fikrlar kognitiv tilshunoslik fanining asosiy maqsadi va vazifasi hisoblanadi. Masalan,

“Tom Tit Tot” ingliz ertagi bosh qahramoni qiroлга turmushga chiqmoqchi bo‘lgan yosh qizdir. Ya’ni, uning asosiy maqsadi o‘zidan ancha yuqori maqomga ega bo‘lgan odamga turmushga chiqish orqali ijtimoiy mavqeini yaxshilashdir. Ertak orqali ushbu maqsad asosida jamiyat yoki oilada yuqori yoki teng maqomga erishish istagining elementar syujetini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Aynan shu mentalitet elementi o‘zbek xalq ertaklarida deyarli uchramaydi. O‘zbeklar tabiatan moddiyatga unchalik ham e’tibor qaratmaydigan, moddiy narsalar ahamiyati g‘arbdagidek prioritet sifatida qaralmasligi uchun ham ayni shu turdagi syujet tarkiblarini bu xalq ertagi namunalarida uchratish deyarli mumkin emas. Aytmoqchimizki, har bir xalq ertagi namunasi o‘zi mansub bo‘lgan xalq mentalitetidan chetga chiqolmaydi. Jahon xalq ertaklarining ko‘plab jabhalarda bir-biriga o‘ta yaqinligini inkor qilmagan holda shuni ham ta’kidlash zarurki, milliliy, individuallik, o‘ziga xoslik ayni shu borada yaqqol yuzaga chiqadi.

Tilning mazmun tomonida etnik guruhning dunyo qiyofasi amalga oshadi va u barcha madaniy qoliplarning asosi hisoblanadi. Ularni tahlil qilish natijasida milliy madaniyatlarning bir-biridan farqi, jahon madaniyati darajasida ular bir-birini qanday to‘ldirishini tushunish mumkin. Shunday ekan, madaniy-milliy jihatni ko‘rib chiqishda til birliklarining umuminsoniy xususiyatlarini hisobga olish zarur, deb hisoblaymiz. Zero, inson dunyoni umuminsoniy va milliy ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida ifodalangan til orqali biladi. Shunda milliy tajriba tilning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi va shu asosda o‘sha tilda so‘zlovchi ongida shunga mos ravishda o‘z dunyosining lingvistik qiyofasini yaratadi. Darhaqiqat, har bir xalq tilining asosini o‘sha xalqning asrlar davomida to‘plagan bilim bazasi tashkil etadi. Shu bilan birga, til shunchaki ko‘rsatmaydi, balki atrof-muhitni tasvirlaydi. Shuning uchun ham V. fon Gumboldt shunday fikr yuritadi: “Turli tillar bir narsaning turli nomlari emas, balki turli dunyoqarashlar natijasidir”.

Ingliz ertaklarida hamma narsa o‘zbek va umuman boshqa mamlakatlar ertaklariga qaraganda realroq ko‘rinadi. Bosh qahramon o‘z hayotini qurbon qiladi va o‘zini yovuzlikka qarshi kurashga bag‘ishlaydi. Ularda ko‘pincha oddiy odamning (ba’zi hollarda bu yosh o‘smir bo‘lishi mumkin) yovuzlik bilan kurashi

aks ettiriladi. Ingliz ertaklari qahramoni har doim ham o'z g'alabasiga ishonchi komil bo'lmasa-da ular jangga borishga majburdir, chunki ularning baxti va farovonligi ushbu jangdagi g'alabaga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Xullas, yuqorida aytib o'tganimizdek, ko'pgina tadqiqotchilar olamning lisoniy qiyofasini olamning konseptual qiyofasi bilan tenglashtiradilar. Ammo olamning konseptual qiyofasi olamning lisoniy tasviriga qaraganda ancha murakkab aloqani tasvirlaydi. Chunki olamning konseptual qiyofasi quyidagi muhim va murakkab masalalar bilan chambarchas bog'liq: til va tafakkur, til va real borliq munosabatlari, real borliqni tasvirlash jarayonida invariant va idiomatik xususiyatlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
2. Колесов В.В. Язык и ментальность. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2004. – 240 с.
3. Щербинина А.Е. Понятие “картина мира” в современных лингвистических исследованиях //Проблемы концептуализации действительности и моделирования языковой картины мира: сб. науч. тр. / сост., отв. ред. Т.В. Симашко. – М.: 2009, № 4. 226 с.
4. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 287 с.
5. Серебренников Б.А., Кубрякова Е.С., Постовалова В.И. Роль человеческого фактора в языке. АН СССР, Ин-т языкознания. – М.: Наука, 1988. – 21 с.
6. Хомский Н. Язык и мышление. – М.: Изд-во Московского университета, 1972. – 126 с.